



ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

2
2023



<https://buxdu.uz>

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2-son (2023-yil, mart)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2023

<https://buxdu.uz>

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2023, № 2

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY‘ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 2, 2023

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 6 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор

Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, доцент

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Андрienко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)

Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)

Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)

Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), доцент

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муюссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдиев Дурдимурод Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор

Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор

Курбонова Гулноз Нематовна, доктор педагогических наук (DSc)

Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук, доцент

Назаров Акмал Мардонович, доктор философии психологических наук (PhD), доцент

Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент

Зарипов Гулмурот Тохирович, кандидат технических наук, доцент

Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD)

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	<i>ЭЛОБ Зуёдулло Самторович</i>	Девиант хулқ –атворли ўсмирлар муаммосининг илмий асослари ҳақида психологик ёндашувлар ва таҳлиллар	7
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
2.	<i>AMONOV Mirjon Namozovich</i>	Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmun-mohiyati va xususiyatlari	12
3.	<i>ASRANBAYEVA Munajat Xalimjanovna</i>	Bolaning jamiyatga moslashuvida rivojlantiruvchi muhitning oʻrni	17
4.	<i>DILOVA Nargiza Gaybullayevna</i>	Ijtimoiy-gumanitar fanlarni oʻqitish jarayonida boʻlajak oʻqituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning pedagogik texnologiyalari	23
5.	<i>DJURAYEVA Lola Rustamovna</i>	Tanqidiy fikrlash pedagogik kasbiy koʻnikmalarni rivojlantirishning asosiy omili sifatida	27
6.	<i>IKRAMOV Amirbek Aminovich</i>	Taʼlimning raqamli transformatsiyasi -- barqaror rivojlanish omili sifatida (“Jismoniy tarbiya” fani misolida)	31
7.	<i>JUMAYEVA Mehrigon Abduvohitovna</i>	Boʻlajak oʻqituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida	38
8.	<i>OMONOVA Nilufar Omon qizi</i>	Kooperativ yondashuvni rivojlantirishning oʻrni va ahamiyati	44
9.	<i>SADULLAYEV Ibrat Shuxratovich</i>	Sirtqi taʼlim shaklining oʻziga xos xususiyatlari	49
10.	<i>TILAVOV Muxtor Xasan oʻgʻli</i>	Rahbar kadrlarga psixologik xizmat koʻrsatishning ijtimoiy-psixologik asoslari	54
11.	<i>TOʻYCHIYEVA Shoyista Jumaboyevna</i>	Kichik maktab yoshidagi bolalar emotsional sohasini oʻyin terapiyasi vositasida psixokorreksiyalash	59
12.	<i>TUYCHIYEV Ashurali</i>	Oʻyinlar vositasida oʻquvchilarda intizomli munosabatni shakllantirishga yoʻnaltirilgan pedagogik jarayon va unga taʼsir etuvchi omillar	64
13.	<i>JOʻRAYEV Akmal Razzoqovich, XALLOQOVA Oygul Olimovna</i>	Zamonaviy yondashuvlar asosida texnologiya darslarni tashkil etish zarurati	69
14.	<i>XUDAYBERGANOV Shuhrat Shavkat oʻgʻli</i>	Akademik erkinlikning antropopedagogik asoslari	76
15.	<i>ZARIPOV Lochin Rustamovich</i>	Boʻlajak texnologiya oʻqituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kredit-modulli oʻqitishning ahamiyati	80
16.	<i>ИСМОИЛОВА Нуржахон Зухуриддиновна</i>	Талабаларда оптимистик позиция ва стрессга барқарорликнинг ўзаро боғлиқлиги	85
17.	<i>НАЗАРОВ Акмал Мардонович</i>	Илмий-инновацион фаолият психологик барқарорликни таъминлашнинг муҳим омилли сифатида	89
18.	<i>НУРАБУЛЛАЕВ Танирберген Алламбергенович</i>	Инновацион етакчилик фаолиятининг ижтимоий-психологик табиати	93
MAKTABGACHA VA BOSHLANGʻICH TAʼLIM			
19.	<i>RAHMONOVA Dilnavoz Muxitdinovna</i>	Maktabgacha taʼlim tashkiloti tarbiyachilari mashgʻulotlarda oʻyin innovatsion oʻqitish metodikasidan foydalanishi	98
20.	<i>HAMROYEV Shuhrat Eliyevich</i>	Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda “Ustodi avval” dan foydalanish imkoniyatlari	103
21.	<i>NEʼMATOVA Flora Baxtiyor qizi</i>	Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻqish darslarida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi	108
22.	<i>НИЯЗОВА Гулбахор Давроновна</i>	Роль предметно-развивающей среды в организации повседневной жизни детей	115
23.	<i>FARMONOVA Shabon Muxamadovna</i>	Boshlangʻich taʼlim mazmunini yangilash va xalqaro baholash	122

**TALABALARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISHDA HUSAYN VOIZ
KOSHIFIYNING TA'LIMOTIDAN FOYDALANISH**

*Ortiqov Oybek Rustamovich,
Buxoro davlat universtiteti
Pedagogika kafedrası o'qituvchisi*

Mazkur maqolada talabalar ma'naviyati, mafkuraviy sifatlarni rivojlantirish va mafkuraviy immunitetini sharq allomalarning ilmiy merosidan samarali foydalanish orqali boyitish, axloqiy-ma'naviy manbalarni tahlil qilish, shuningdek, XIV-XV asrlarda yashab ijod etgan allomalardan Alisher Navoiy yaqin do'sti va zamondoshi, Navoiyga atab “Mavohibi oliya” (Oliy tuhfarlar) nomli asarini yaratgan Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muxsuniy” nomli asari, mazmuni, javonmardlik va uning axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Jumladan, axloqiy, adab, xulq, shariyat qoidalari, g'oyalari jamlangan dastur sifatida ko'p yillik o'tmishga ega “Axloqi Muxsuniy” asarining talabalar ma'naviyati, ma'rifatini boyitishga roli va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar, tavsiya va xulosalar bayon qilingan.

***Kalit so'zlar:** “Axloqi Muhsuniy”, axloq, tavba, sabr, piri-murudlik odobi, qarashlar, g'oya, ma'naviy-axlodi sifatlari, shakllanish, rivojlanish, dunyoqarash, ma'naviyat, ma'rifat, ma'lumot, faoliyat, kompetentlik, pedagogik qobiliyat, mafkura, mafkuraviy immunitet, talaba mafkuraviy immuniteti.*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ УЧЕНИЯ ХУСЕЙНА ВОИЗА КОШИФИ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ
ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА У СТУДЕНТОВ**

В этой статье представлено обогащение духовности, идейных качеств и идейного иммунитета учащихся за счёт эффективного использования научного наследия учёных Востока, анализа этических и духовных источников, а также Алишера Навои, близкого друга и современника учёных, живших и творивших в XIV-XV вв. веков, названный в честь Навои Хусейна Вайза Кошифи, создавшего произведение «Мавахиби Олия» («Высокие дары») «Ахлаки Мухсуни», описываются комментарии к его содержанию, молодости и его нравственно-воспитательное значение. В частности, «Ахлаки Мухсуни» имеет долгую историю как программа, содержащая этику, манеры, поведение, нормы и идеи шариата, комментарии, рекомендации и выводы о роли и значении его работы в духовно-просветительском обогащении учащихся.

***Ключевые слова:** «Этика Мухсуни», нравственность, покаяние, терпение, нравственность, взгляды, идеи, духовно-нравственные качества, формирование, развитие, мировоззрение, духовность, просвещение, информация, деятельность, компетентность, педагогические способности, мировоззрение, идеологический иммунитет, идеологический иммунитет учащихся.*

**USING THE DOCTRINE OF HUSSEIN VOIZ KOSHIFI IN FORMING IDEOLOGICAL
IMMUNE IN STUDENTS**

In this article Enrichment of spirituality, ideological qualities and ideological immunity of students through the effective use of the scientific heritage of Eastern scientists, the analysis of ethical and spiritual sources, as well as Alisher Navoi, a close friend and contemporary of scientists who lived and worked in the XIV-XV centuries. centuries, named in honor of Navoi Hussein Waiz Koshifi, who created the work “Mawahibi Oliya” (“High Gifts”) “Ahlaki Mukhsuni”, comments on its content, youth and its moral and educational significance are described. In particular, “Ahlaki Muhsuni” has a long history as a program containing the ethics, manners, behavior, norms and ideas of Sharia. comments, recommendations and conclusions about the role and significance of his work in the spiritual and educational enrichment of students.

***Keywords:** “Ethics of Mukhsuni”, morality, repentance, patience, morality, views, ideas, spiritual and moral qualities, formation, development, worldview, spirituality, enlightenment, information, activity, competence, pedagogical abilities, worldview, ideological immunity, ideological immunity of students.*

***Kirish.** XXI asrda jahon malakatlari hayotida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Dunyo mamlakatlari hayoti iqtisodiy, siyosiy, jtimoiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda keskin burilishlar, g'oyaviy xurujlar, tahlikalari, g'oyaviy kurashlar, mafkuraviy tahdidlar avj olib turgan, qurolli to'qnashuvlar bo'lib turgan bugungi tahlikali zamonda yoshlarimizda mafkuraviy sifatlarni sharq allomalarning ilmiy-ma'naviy merosi*

bilan oziqlantirish, mafkurasi, mafkuraviy immunitetini rivojlantirishga, psixologik-pedagogik xususiyatlari, fazilatlarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda yurtimizda diniy-ma‘rifiy sohada amalga oshirilayotgan tub islohotlar mazmun-mohiyatini keng yoritish, qadim va boy ilmiy-tarixiy merosimizni chuqur o‘rganish asosida xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodni yot va buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilish ustuvor maqsadga aylandi.

Adabiyotlar tahlili. Miloddan avvalgi II asrdan milodiy XV asrga qadar Buyuk Ipak yo‘lining aynan Markaziy Osiyoning bir necha shaharlaridan o‘tgan esa, ushbu yurtda nafaqat savdo-sotiq, balki ilm-fan va madaniyat taraqqiy etishiga zamin hozirladi. Tinchlik-totuvlik muhiti hamda svilizatsiyalararo do‘stona muloqot esa ilk davlatchilikning qaror topishi va taraqqiy etishiga ham sharoit yaratgan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan O‘zbekistondagi Islom svilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ygan xalqimizning ma‘naviy-ma‘rifiy barkamolligini namoyon qilish bilan bir qatorda, Uchinchi Renessans davriga poydevor ilm-ma‘rifat maskanlari bo‘lishiga imkon yaratdi.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosini tahlil etar ekanmiz, ularning ma‘naviy-ma‘rifiy merosi, yaratgan asarlari mazmun mohiyatini pedagogik metodlar kuzatuv, qiyosiy tahlil, adabiyotlarni o‘rganish, imliy natijalarni o‘rganish kabi muammolarni tahlil qilishni talab etadi. Jumladan, sharq allomlaridan Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” asaridagi futuvvatlik, juvonmardlik, axloq, odob, talabalarda mafkuraviy sifatlarni boyitishga xizmat qiladigan, axloqni poklash, himmat va shavqat kabi insoniy fazilatlar orqali talabalarni mafkuviy immunitetini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, “Axloqi Muhsiniy” asarinining “Futuvvatning manbai, mohiyati, tariqat va odob hamda uning ruknlari” nomli bobida talabalarga o‘qib o‘rganishga undash, asarning mazmun-mohiyatini anglash, shuningdek birinchi faslda futuvvatlikning zohiriy va botiniylikning ustuni, ruknlari orqali mafkuraviy immunitetni rivojlantirish masalari yoritib berilgan.

	Futuvvatning zohiriy ruknlari	Futuvvatning botiniy ruknlari
1.	Nojo‘ya, bo‘xton, g‘iybat so‘zlardan quloqni berkitish	Tavoze, kamtar, xorisor bo‘lish
2.	Ko‘rish nojo‘ya bo‘lgan narsalardan ko‘zni berkitish	Qanoat
3.	Harom narsalardan, xalq ozoridan qo‘lni saqlash	Avf va marhamat
4.	Borish man qilingan noshoista joylardan oyoqni tortish	Havobalandlik va g‘ururni tark etish
5.	Harom ovqatdan og‘izni, zinodan tiyilish	Qurb (ilohiyotga yaqinlashish)

Juvonmardlik, shariat haqida so‘z boshlashdan oldin, shu fikrni inobatga olishimiz kerakki, dunyoviy ilmlar bilan birgalikda diniy bilimlarni talabalar bilishi lozim, chunki, har bir talaba dunyodagi bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida anglashi kerak ekanmi, albatta u diniy bilimlar, tasavvuf ilmini ham anglamog‘i, o‘rganmog‘i zarur.

IX asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqilib, so‘fiylarning amaliy, ruhiy-psixologik mashqlari, o‘z-o‘zini tarbiyalash va chiniqtirish tabdir-usullari shakllandi.

Tariqat, ma‘rifat, haqiqat degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning ushbu uch qismiga oid qarashlar majmui tuzildi, tasavvuf alohida ilm sifatida qaror topdi. So‘fiylar dastlabki paytlar tasavvufni nuqul siru asror, tushuntirib bo‘lmaydigan holatlar («iboraga kelmaydigan ishoratlar») deb hisoblagan bo‘lsalar, bora-bora bu holatlar haqida fikr-mulohazalar bayon qilina boshlandi, so‘fiyni tarbiyalash vazifasi, pir-muridlik qoidalari, odobini yaratish zarurati shakllandi. Natijada, tariqat va shariat orasidagi munosabatlar, olam, odam va olamning yaratuvchisi orasidagi aloqa-muomala mohiyati, tavhid - vahdat masalalari munozalarga sabab bo‘ldi. Din arboblari bilan so‘fiy shayxlari, ayniqsa falsafiylashgan tasavvuf tarafdorlari jiddiy mafkuraviy tortishuvlargacha olib bordi.

Tasavvufning yirik vakillaridan biri, Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi Muhsiniy” asarida borliqni anglash orqali ruhiy holatni boshqarish mumkinligi haqida so‘zlar ekan, juvonmardlikning yetmish bitta sharti borligini, ulardan qirq sakkiztasi vujudiy, yigirma uchtasi parhez shartlar mavjudligi, masalan, islom, ilm, aql, zuhd, vara’ (parhez), exson, vafo, xayo, ga‘yrat, shijoat, sabr, qanoat, salom odobini saqlash, ixlos bilan amal qilish, shukur qilish, mazlumlarga yordam berish, ko‘p bilib, oz gapirish, ota-ona hurmatni bajo keltirish, sabr, nasihat singari tiyilish shartlari allomaning ilmiy merosini asosini tashkil etadi.

“Axloqi Muxsiniy” asarida shuningdek, azaliy parhez (ya‘ni man etilgan) qilingan tarbiya shakllari ustozlarga qarhi bormaslik, qabih so‘zlardan saqlanish, yaxshilar orqasidan gapirmaslik, ortiqcha mazax qilmaslik, gap tashish, ko‘p kulmaslik, makr-hiyladan saqlanish kabi juvonmardlikning amallarini bajarish kerakligi nafaqat Husayn Voiz Koshifiy asarida balki, bugungi kun hayotda ham nechog‘lik zarurligi

zamonning o‘zi ko‘rsatmoqda. Diniy kitodlar hamda tasaffuv ilmining mazmunida o‘z aksini topgan axloq qoidalari va amallari yoshlar tarbiyasiga dasturul-amal bo‘ladi.

“Axloqi Muhsiniy” asarida bayon etilgan fikrlardan eng muhimi — tariqat ahlining odobi borasidagi bayonlardir. Boblarda tariqat ahlining ko‘nglini yomon o‘y- niyatlardan asrash, ko‘z, quloq, til, og‘iz, qo‘l va farj (tanosil a‘zolari)ni yomon, harom sanalgan xatti-harakatlarni sodir etishdan saqlash odobi, tariqat arbobi, tariqat toifalari a‘zolarining odobi, taqvodorlar (xonaqo) odobi, o‘tirish, bemor holidan xabar olish, janoza, ta‘ziyaga borish, kasb-kor, savdo-tijorat va ma‘rakaga borish odoblari xususida so‘z yuritilib, ma‘naviy-axloqiy xatti-harakatlarning har bir uslubi va uning mohiyati ochib beriladi.

Ma‘lumki, muayyan kasb yoki hunar bilan shug‘ullanuvchi kishilar ana shu kasb yoki hunarning ichki xususiyatlaridan kelib chiqib, muayyan odob-axloq qoidalariga amal qilishlari talab etilgan. Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati» asarida turli kasb-hunar egalarining odoblari yuzasidan ham fikr-mulohazalar bildirilgan. Ushbu jihatlariga ko‘ra, asar barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash masalalariga jiddiy e‘tibor qaratilayotgan hozirgi davrda beqiyos ahamiyatga egadir[4,172 b].

Inson huquqlarini ta‘minlash, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni ta‘minlash, inson qadrini yuksaltirish, erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, mamlakatimizda adolat, qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy, zarur shartiga aylantirishi, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish, mamlakatimiz xavfsizligi, mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik faol tashqi siyosat olib borish, ma‘naviyat va ma‘rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta‘lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo‘llash, mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma‘naviy tarbiyaning uzviyligini ta‘minlash ko‘nikmasini shakllantirish, “Yoshlar — Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari”, “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlash [8] singari shior ostida ma‘naviy-axloqiy xususiyati, qarashlar, fazilatlarini, mafkuraviy sifatlar, fazilatlar va mafkuraviy immunitetini rivojlantirishda “Axloqi Muhsiniy” asarining roli haqida so‘zlar ekanmiz, o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, nozik axloqiy fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan sharq allomlarning ilmiy merosini o‘rganish kerak bo‘ladi.

“Axloqi Muhsiniy” asari 12 bobdan iborat bo‘lib, asarning bizgacha 7 bobi yetib kelgan.

“AXLOQI MUHSINIY” ASARI TUZILISHI	
MUQADIMMA	
1.	Fasl. Ilm sharafi haqida
2.	Fasl. Ilmning mavzui haqida
3.	Fasl. futavattning mohiyati, uning lug‘aviy va istilohiy ma‘nolari haqida
I-bob	Futavvatning manbai, mohiyati, tariqati va odob hamda uning ruknlari haqida
II-bob	Piri muridlik va unga aloqali narsalar to‘g‘risida
III-bob	Naqib, ahd, otasi va shadd ustoz (vafo belbog‘ini bog‘lovchi kishi) va shogird bilan shadd ustozning ahdlashuvi va buning shartlari, ruknlari haqida
IV-bob	Xirqa va ahli faqrning kiyimlari, uni kiyish, kiydirish va muridlarga xirqa yetkazish va buning shartlari, odobi arkonini bayonida
V-bob	Tariqat ahlining odobi haqida
VI-bob	Maraka va uning tuzilishi haqida
VII-bob	Kasblar ularning odobi haqida

Asarni beshinchi bobi biz tanlagan mavzuda, tarbiya, odod, xulq, axloq masallariga alohida e‘tibor berilib, insoniy juharlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. “Axloqi Muhsiniy” asarining “Tariqat ahlining odobi” nomli 5-bobida futuvvatning zohiriy va botiniy ruknlarini tariqatda amalda qo‘llash, inson a‘zolarining odobi haqida so‘z boradi. Hakim Abdulmajid Sanoiy “Hadiqat ul haqiqat” monli asarida zohiriy adablar botiniy adablarning mazmunidir, deb ta‘kudlab, suhbat odob natijasi, odob hurmat natijasi, hurmat poklik natijasi, poklik aql natijasi aql sir natijasi, sir ma‘rifat natijasi sifatida ta‘riflaydi [3, 62 b].

Inson a‘zolarining pokligi, gunoh ishlardan saqlanishi haqida bayon qilar ekan, jumladan ko‘zni to‘rt narsa (nomahram, shahvat, o‘zgalar aybini ko‘rmaslik, birovga haqorat nazari bilan qaramaslik) dan saqlanish, quloq odobi g‘iybat, fahsh, behuda, bidiat so‘zlar saqlash, tilni oltita nasrani gapirishi, sakkiz

narsani gapirmasligi, saqlanisi lozimligi ta’kidlangan. Nafsni harom va shubali taomlardan saqlash, oyoqni xayli ishlarga borishga, nopok ishlarga borishdan saqlash lozimligi haqida to’xtalib, mohiyatini ochib berishga harakat qiladi.

Husayn Voiz Koshifiyning qarashlari XIII asrda yashagan buyuk alloma Jaloliddin Rumiya ham ko’rish mumkinki, alloma qalb ko’ziniga ta’rif berar ekan, “Ko’zni yumgil, ko’zga aylansin ko’ngil” iborasi bilan inson qalbi, ruhiyati, qarashlari uning olamiga ma’lum mashhurligini asoslaydi. Sharq mutafakkirlarining qarashlari asosida yuskak salohiyatli, intellektual yoshlarni tarbiyalash masalasi kun tartibida turar ekan, yuksaklikning yuqori cho’qqisi manaviyatdir. Ma’naviyat-inson ruhiy, aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o’z ichiga oladi. Manaviyat atamasining asosida «ma’no» so’zi yotadi. Ma’lumki, insonning tashqi, ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo’y basti, ko’rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqalar kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg’ularini o’z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma’naviyatdir. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, manaviyat unga ruhiy oziq, qudrat bag’ishlaydi.

Manaviyat odamlarda tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o’qish, o’rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Manaviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat, millat shunchalik ravnaq topadi. Ma’naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o’tkazish yo’lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof, adolat nuqtai nazaridan yondoshadi. Vijdon nima, yolg’on, rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima — bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi. Qisqasi, ma’naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni sevis, vatanparvarlik inson ma’naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir [9].

Ma’naviyat kamol topgan jamiyatlarda qobiliyat, iste’dod egalari shu jamiyatning, millatning yuzi, g’ururi, obro’-e’tibori hisoblanadi. Manaviyatli jamiyatda aql, sog’lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Manaviyat negizida qarashlar, g’oyalar, fikrlar, mafkuraviy qarashlar jo bo’lganki, ular orqali insonlarda mafkuraviy sifatlar, fazilatlar, mafkuraviy immunitet rivojlanadi.

Shu o’rinda mafkura va mafkuraviy immunitetga berilgan ta’riflari haqida ma’lumot berar ekanmiz, **mafkuraviy immunitet**-shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g’oyaviy ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g’oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimidir. Immunitet (lot. immunitet - ozod bo’lish, qutilish) tibbiy tushuncha bo’lib, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o’zini turli ta’sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo’lgan reaksiyalar majmui tushuniladi. Sodda qilib aytganda, immunitet - kishi organizmining turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyatidir.

Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muxsiniy” asari aynan mana shu sifatlar mafkura, mafkuraviy sifatlar, odob, axloq, xulq, go’zal sifatlarni shakllantirishda, har bir inson faoliyatiga oid odoblar, axloqlar, xulq namunalari o’z ifodasini topgan. Asarni mavzular kesimida tahlil etar ekanmiz, bevosita shariat doirasida amalga oshirilishi lozim bo’lgan masalalar juda aniq misollar bilan bayon etilgan.

Bugungi kunda yoshlar ma’naviyati, mafkurasi, mafkuraviy immunitetini shakllantirishda qachonlardir tasavvuf deb qaralgan shariat amallari ham bevosita xizmat qiladi. Jumladan “Axloqi Muhsiniy” asarning 8-bobida bayon qilingan “Hayo bayonida” hayo so’ziga ta’rif berilgan. Husayn Voiz Koshifiy hayo so’zining ma’nosi yomon ishlardan saqlanish, uyalish, odamzod uchun hayo sharif, maqbul siyratdir. Hayo iymon daraxtidan bitta shoxdir va olamning barqaror turishining shartidir. Hayo insonlar o’zlari xohlagan ishlarini qilishga yo’l qo’ymaydi [3.143b].

“Axloqi Muhsiniy” rivoyat keltiriladiki, unda xalifa Ma’munni oqilligi va hayoni yuqori darajada saqlaganligi haqida hikoya qilinadi. Rivoyat; xalifa mamun zamonida sahroi qabilalardan birida ocharlik, qurg’oqchilik ro’y beradi, shunda arablardan biri sahroga chiqib ketadi. Sahroda u ko’p qiyinchiliklarni ko’radi, va tashnalaik, ochlik uni juda qiynalib, tentiraklab bir joyga boradi. U yer unumdor va ziroatbop joy edi. Arab u yerda yomg’idan yigilib qolgan suvni ko’radi. Suv yomg’irlar natijasida yig’ilib qolgan edi. Arab olohgga shukrona keltirilib, suvda ichadi va xayoliga shu suvdan xalifa Ma’munga bermoq uchun meshkobga oladi va xalifaning huzuriga oshiqadi. Xalifa bu vaqtda shikorda edi. Arab shikordagi yurgan xalifa Ma’munga yaqinlashib, unga bir narsa olib kelganini aytadi. Xalifa Ma’munga nima olib kelding deb so’rganida arab “Jannat suvi”dek shirin suv olib kelganini aytadi. Xalifa Ma’mun suvni is’temol qilib, juda badboy ekanligini bilsada, hayo qilib mulozimlaridan biriga suvni olib bir joyga etib qoyishni, undan hech kim ichmasligini buyiradi va arabga ming dinor berib, turgan joyidan orqaga qaytib kerishni ta’kidlaydi. Arab ketgach jilovdori xalifadan nega bunday qilganligini so’raydi. Xalifa suvni faqat o’zi ichishini aytganda, suvni sho’r badboyiligini bilib arabdan hayo qilganligi, keyin shu yerdan ketish lozimligini aytganda o’tib shirin suvli daryoni ko’rib, keltirgan suvini qanchalik sho’r va badboyiligini bilmasligini

xohlaganligini, arabni uyalib qolishdan saqlaganligini takidlaydi. Rivoyatdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, xalifa juda odobli, xalqiga juda samimiy munosabatda bo‘lganligidan dalolat beradi.

Natija. Husayn Voiz Koshifiy qaysi sohaga qo‘l urmasin sohani puxta egallab, o‘z g‘oyalarini bayon etgan. Allomaning “Axloqi Muhsiniy” asarini tahlil etar ekanmiz, asarning har bir bobi ma‘lum bir sohaga oid adablarni bayon etadi. Hayo bobida shoh No‘shravon nargiz guli tugran uyda ayollar bilan ko‘ngilxushlik qilmasligi haqida ham bayon qilinib, nega bunday qilasiz deb so‘raganlarida nargiz guli go‘yoki menga qarab, kuzatib turgandek bo‘ladi, nargiz gulidan hayo qilurman degan ekanlar.

Asarni “Pokizalik bayoni” bobi alloma pokizalikni harom narsalardan, xususan, harom shahvatdan saqlanishdir deb tariflagan ekanlar. Shuningdek, har bir odamda ikki nisbat borligini, ulardan biri farishtalik bo‘lib, unda odam ilm va amalga moyil bo‘ladi. Ikkinchi nisbat hayvoniylilik, ya‘ni nafs va uning ko‘rinishi, yeyish, ichish, jinsiy mayilga ehtiyoj bo‘lib, pokizalikka rahna soladi, xiralashtiradi, deb pokizalikka ta‘rif berganlar.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda, ma‘naviy va mafkuraviy sifatlarni shakllantirishga Koshifiy “Axloqi Muhsiniy” asarining adab haqida bobida odob haqida bayon qilar ekan, adab - yomon so‘zdan, befoyda ishdan nafsni tiyish, boshqalarning izzatini saqlab, obroyini to‘kmaslikdir” [3.143b] deb ta‘riflaydi.

Talabalar ma‘naviy axloqiy va mafkuraviy sifatlarini rivojlantirishda “Axloqi Muhsuniy” asari muhim manba, hikmat va misollar orqali talabalar yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo‘lishida, zamonaviy bilimlarni ajdodlarimiz o‘g‘itlaridan oziqlangan holda mafkuraviy sifatlarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Asar juda yuksak axloqiy fazilatlarini shallantirishda, ma‘naviy yuksalishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni. -T., 2020
2. Mirziyoev SH.M. Yuksak ta‘riflarga munosib zamin // Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: «O‘zbekiston». 2017-yil.
3. Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi Muhsiniy”- T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2011 y.- 376 bet.
4. Hashimov K, Nishonova S. “Pedagogika tarixi” darslik — T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005y— 304 b.
5. Ortiqov O. R. Globallashuv jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish omillari //scientific progress. – 2021. – т. 1. – №. 5. – с. 160-165.
6. Ortiqov O. R. Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalari (oliy ta‘lim mussasalari misolida) // Экономика. – с.1130-1135.
7. <https://lex.uz/docs/-5344692>
8. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
9. https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20M%20harfi.pdf